Palvonnazarov Feruzbek
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Soliq va soliqqa tortish yo'nalishi talabasi

Yangi O‘zbekistonda har kuni mo’jiza





ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekiston eng go'zal va betakror yurt sifatida barchamiz uchun aziz ona Vatanimiz amaliy va jadal islohotlari bilan dunyo hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo’layotganligi hamda ezgu yangilanishlar mamlakatiga aylanayotganligi barcha yoshlar uchun faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otishi, hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangrashi, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirishi kabi jihatlari ko’rsatilgan

Kalit so’zlar: yangi O’zbekiston, jadal islohotlar, faxr va iftixor, **renessans,** bunyodkorlik, taraqqiyot

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston eng go'zal va betakror yurt sifatida barchamiz uchun aziz ona Vatanimizdir. O'zbekistondagi amaliy va jadal islohotlar dunyo hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Ezgu yangilanishlar mamlakati bo'lgan O'zbekiston barcha yoshlar uchun faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Hozirda O'zbekiston uzra o'zgarishlar shabadasi kezmoqda. Bu ertangi kunning zavq-shavqi bilan g'ayrat va shijoat ko'rsatib mehnat qilishga undaydi. Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni bugun jahonning taniqli olimlari tan oldi, shubhaga to'la qarashlari bilan ajralib turuvchi

ekspertlar ham ularni istiqbolli, deya baholayapti. Prezidentligining dastlabki yilidayoq respublika rahbari turli-tuman bashoratlarga qaramay davlatni yanada ochiqroq qilishga intildi hamda buning natijasi kundalik hayotimizda namoyon bo'lmoqda.

Muhokama va natijalar

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun **“Yangi O'zbekiston”** va **“Uchinchi Renessans”** so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon biz uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Chunki, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta'minlaydigan eng muhim mezondir.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezidentimiz sifatli ta’lim to’g’risida ko’p gapirayotganliklari zamirida katta ma’no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o‘quv binolarida ta’lim olayotganimiz bilan haqli ravishda faxrlana olamiz. Davlatimiz rahbari boshchiligida qisqa vaqtda ta’lim-tarbiya sohasida tanlagan yo‘limizning naqadar to‘g‘ri ekanligini yaqqol isbotlab turibdi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston –ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oyani ilgari surgani bejiz emas. Zotan, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini

yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz”.

“Ta’lim va tarbiya – yosh avlod kamolotining poydevori va davlatimiz taraqqiyotining kafolati”, belgilangan maqsadlarga so‘zsiz erishish barchamizdan yakdillik va faollik talab etadi.

Demak, mamlakatni qudratli qiladigan kuch ilm-fan, ta’lim va tarbiya ekan, bilim va ma’naviyat maskani bo‘lgan o’quv dargohlarida sharoitlar yaxshilanyapti.

O‘zbekistonning ta’lim va intellektual rivojlanish darajasi bo‘yicha dunyoda eng yuqori reytingga ega 30 ta davlat qatoridan joy olishini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Davlatimiz bu borada ta’lim tizimida raqobat muhiti shakllanishi uchun xususiy Oliy ta’lim muassasalariga keng yo‘l ochishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, talab yuqori bo‘lgan kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini ishga solish qisqa vaqtda albatta, o‘z samarasini beradi. Universitetimizda kunda yangilik, yangi dars jarayonlari, yangi-yangi tadbirlar, yangi to’garaklar, turli sog’lomlashtirish tadbirlari, davra suhbatlar, xush xabarlar, yangicha nigohlar……..

Bularning hammasi Yangi O’zbekistonning yangi mujizalari

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, agar jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo, ta’lim tizimidan boshlanganini ko‘ramiz. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – o’quv darg’ohi. Shu jihatdan ta’lim sifati Yangi O’zbekistonning barcha diyorida yuqori bo‘lishi lozim.

Umuman olganda bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti, siyosati va barcha soha yo'nalishlarida yangicha usul, yangi omil, yangi o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bugun

O'zbekiston o'z atrofida farovonlik kamarini shakllantirish, jamiyat hayotining barcha jabhasiga zamonaviy yondashuv va usullarni keng tatbiq etish orqali o'z bunyodkorlik salohiyatini jadal safarbar qilib borayapti. Bunda mamalakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga xalqimiz farovonligini oshirish nuqtai nazaridan baho berilayotgani diqqatga sazovordir. Bunday yondashuv, shubhasiz, yaqin istiqbolda o'zining yuksak natijalarini beradi. Zero, yurtboshisi buyuk yurt qudratli bo'ladi. Yangi O'zbekistonimiz uchun hammamiz qudratli bo'lmog'imiz darkor.

Foydalanilgan manba:

1. 2022-yil 20-dekabrda Prezidentimizning Oliy majlisga murojaatnomasi

2. Sh.M.Mirziyoyev "Birgalikda biz erkin va gullab-yashnagan O'zbekistonning demokratik davlatini barpo etamiz" T.: O'zbekiston 2016 y.

3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 24.08.2021 y. "Yoshlarga oid davlat siyosati"

4. O.O.Olimjonov "Yangi O'zbekistoning yangi imkoniyatlari"